


Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik


2018 yilning yanvar-iyunida 6068 ta yangi kichik korhona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,3 % ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korhona va mikrofirmalar savdo sohasida (27,1 %), sanoat tarmog'ida (20,0 %), qurilishda tarmog'ida (12,1 %), yashash va ovqatlanishda (8,3 %), tashish va saqlashda (5,2 %) tashkil etgan.

2018 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




2018 yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yeqtalarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).



2018 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yeqtalarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida 44,4 birlikda, Bektemir tumanida 36,7 birlikda, Mirobod tumanida 33,8 birlikda, Chilonzor tumanida 24,4 birlikda bolib, Mirzo-ulug'bek tumanida 24,1 va Yunusobod tumanida 23,3 birlikda, Sergeli tumanida 18,8 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 18,8-29,4 birlik oralig'ida aniqlandi. Shayh ntonur tumanida 16,5 birlikda, Olmazor tumanida 16,8 birlikda, Yashnabod tumanida esa 17,9 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.


**Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga.**



2016 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 18,6 birlikda bo'lib, 2017 yilda 20,6 birlikni tashkil etdi. 2018 yilda bu ko'rsatkich 22,5 birlikka yetdi. Bu esa, 2016 yil ko'rsatkichidan 3,9 birlik yuqori.

2018 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 60,5 % ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-iyunida 61,7%). YaIM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.

**Kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushining pasayishi
dinamikasi yanvar-iyun holatiga, %**



**2018 yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning
hududlar bo‘yicha ulushi
(% da)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar
Toshkent shahri	68,0	72,7	49,9
<i>tumanlar:</i>			
Olmazor	88,3	96,1	76,3
Bektemir	63,0	51,6	96,8
Mirzo-Ulug’bek	31,8	67,3	60,7
Mirobod	49,3	40,8	31
Sergeli	81,4	99,2	45,1
Uchtepa	89,6	89,7	86,5
Chilonzor	79,8	81,3	58,5
Shayhantohur	49,7	35,9	60
Yunusobod	84,9	80,0	32,7
Yakkasaroy	86,2	98,0	65,9
Yashnabod	66,6	99,6	35

Hududlar bo‘yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Uchtepa tumanida (89,6 %), Olmazor tumanida (88,3 %), Yakkasaroy tumanida (86,2 %), Yunusobod tumanida (84,9 %), Sergeli tumanida (81,4 %) va Chilonzor tumanida (79,8%) tashkil etadi.

Qurilishda Yashnabod (99,6 %), Sergeli (99,2 %), Yakkasaroy (98,0 %) Olmazor (96,1 %) va Uchtepa (89,7) tumanlari tashkil etadi.


Xizmatlar sohasida Bektemir (96,8 %), Uchtepa (86,5 %) va Olmazor (76,3 %) tumanlari tashkil etadi.

2018 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub‘ektlari tomonidan:


– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 11026,1 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 68,0 %) yoki 2017 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o‘sish sur‘ati 108,6 %ni tashkil qildi;

- 5140,4 mlrd. so‘mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 51,2 %) o‘zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o‘sish sur‘ati 126,9 %ni tashkil qildi;
- 2922,2 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 72,7 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o‘sish sur‘ati 110,6 % ni tashkil qildi;
- 10633,8 mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatilib (jami xizmatlar xajmining 49,9 %), 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o‘sish sur‘ati 102,8 % ni tashkil qildi;
- chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 76,6 % yoki 10367,3 mlrd. so‘mi (o‘sish sur‘ati 2,2 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;
- 317,8 mln. AQSh dollarasi (umumiyligi eksport hajmining 22,5 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 79,1 mln. AQSh dollariga yoki 33,1 % ga ko‘p;
- avtomobil transporti yuk aylanmasining 5,7 %ga (jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 71,1 %) ko‘payishi ta‘minlandi;
- yo‘lovchi aylanmasining esa 2,7 % ga (umumiyligi yo‘lovchi aylanmasining 77,0 %) ko‘payishi ta‘minlandi;

**Kichik tadbirkorlikning ulushi
(umumiyligi hajmiga nisbatan % da)**




2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirdorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Olmazor tumani (1570,9 mln.so'm), Yashnabod tumani (1357,6 mln.so'm) va Sergeli tumani (1332,8 mln.so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Mirobod tumanida (493,6 mln.so'm), Mirzo-Ulugbek (652,0 mln.so'm) va Yakkasaroy tumanida (691,2 mln.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




**2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik
(biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati**



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Shayhantohur tumani (1686,0 mlrd.so'm), Uchtepa (1552,9 mlrd.so'm), Bektemir (1451,9 mlrd.so'm), Chilonzor (1351,9 mlrd.so'm) va Yunusobod (1210,2 mlrd.so'm) tumanilari hissasiga to'g'ri keladi.



**2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik
(biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati**




Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Shayhantohur tumanida (1427,5 mlrd.so'm), Yunusobod (1359,2 mlrd.so'm) va Chilonzor (1143,9 mlrd.so'm), Mirzo-Ulug'ber (1113,7 mlrd.so'm) va Mirobod (1064,3 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil II - chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 190 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 0 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 66,7 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 14,3 % va 67,4 %, xizmatlar sohasida – 11,7 % va 61,0 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 0 % va 66,7 %, sanoatda – 15,0 % va 60,0 %ni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 25 %, qurilishda – 33,3 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 33,3 %, xizmatlarda – 27,3 % va savdoda – 18,4 %ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil II–chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 52,5 % sanoat korxonalari, 49 % – savdo, 39 % – xizmatlar, 33,3 % – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 57,1 % – qurilish tarmog'ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko'rileyotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiyligida iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.